

**MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA XOTIRANI
RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI**

Turg'unova Sarvinoz

Alfraganus Universiteti Pedagogika va psixologiya

yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktab yoshidagi o'quvchilarda xotira jarayonini rivojlantirishning samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda xotirani mustahkamlashga doir amaliy tavsiyalar berilgan. Mazkur maqola pedagoglar, psixologlar va ota-onalar uchun foydali ilmiy-amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Xotira jarayoni kichik maktab yoshi, , idrok, takrorlash usullari, sezgi organlari, nutq faoliyati, pedagogik texnologiyalar, esda qoldirish.*

Ta'lim jarayonining samaradorligi o'quvchilarning psixik funksiyalarining, xususan, xotiraning rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liq. Xotira - insonning eslab qolish, saqlash va kerakli paytda esga tushira olish qobiliyati bo'lib, bu o'quv faoliyatining ajralmas qismi sanaladi. Ayniqsa, maktabga endigina kirgan yoshdagi bolalarda xotira tez shakllanadi va maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotlar orqali rivojlantiriladi. Shuning uchun boshlang'ich va o'rta maktab davrida xotira ustida izchil ishlash muhim hisoblanadi.

Maktab yoshi - xotira rivojlanishining muhim bosqichi: Bu yoshda bolalar sezilarli darajada aqliy va psixologik o'sishni boshdan kechiradi. Xotira jarayoni ham shu davrda rivojlanib, mustahkam bilimlarni egallash, yangi ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda vizual (ko'z orqali), eshitish (quloq orqali), va amaliy (harakat orqali) xotira rivojlanadi. Ularning har biri o'quv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ushbu yoshdagi bolalar diqqatini uzoq vaqt jamlashga qiynaladi, xotira faqat ko'p takrorlash orqali mustahkamlanadi. Shu sababli o'qituvchilar va ota-onalar o'quv

materialini qiziqarli va interaktiv tarzda taqdim etishlari kerak. Xotirani rivojlantirish o'quvchilarning bilim qabul qilishini yaxshilaydi, ularning ta'limdagi muvaffaqiyati va intellektual salohiyatini oshiradi. Zamonaviy ta'lim talablariga javoban, kichik maktab yoshida xotira jarayonini chuqur va to'g'ri rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik maktab yoshi - xotira rivojlantirish metodlariga o'yinlar va multimediyadan foydalanish va yodlash uchun tasviriy va eshitish materiallari, harakat orqali xotirani mustahkamlash kabilarni kiritish mumkin.

Kichik maktab yoshida tez va puxta esda qoldirish eng avvalo esga olinadigan materialning qanday idrok qilinishiga bog'liq. Tez, ravshan va raso, aniq idrok qilingan narsa, odatda, esda tez va mahkam saqlanib qoladi. Shuning uchun ham idrokning sifatini belgilovchi shart ayni vaqtda xotiraning sifatini ham, ya'ni uning tezligini va puxta bo'lishini ham belgilaydi. Shunisi ham muhimki, materialni idrok qilishda qancha ko'p sezgi organlari ishtirok etsa, material ham shuncha tez va puxta esda qoladi. Masalan, o'quvchilar o'quv materialini eshitish organlari vositasi bilan idrok qilib qolmay (faqat o'qituvchining darsiga, sheriklarining baland ovoz bilan o'qishiga quloq solish bilangina cheklanib qolmay), balki ko'rish organlari vositasi bilan (darslikni o'qish, undagi rasmlarni ko'rish, turli ko'rsatma qurollardan foydalanish), shuningdek, muskul harakatlari (yozib olish, so'zlarni baland ovoz bilan aytish, o'z ichida shivirlab aytish) vositasi bilan ham idrok qilganlarida, bu materialni yaxshi va mustahkam eslab qoladilar. Materialni yaxshiroq esga olib qolmoq uchun har xil idrok usullaridan foydalanish kerak. Masalan, chet tildagi so'z va gaplarni yodlab olmoq uchun ularni faqat o'qish va og'zaki qaytarish kifoya qilmavdi. balki bu so'z va gaplarni bir necha karra ko'chirib yozish va vozilganni ovoz bilan o'qish kerak, ana shunda material tezroq va puxta esda qoladi.

Xotira – bilim egallashning tayanchi bo'lib, uni to'g'ri rivojlantirish o'quvchining umumiy aqliy salohiyati, o'zlashtirish darajasi va mustaqil fikrlash qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Xotirani rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuv, individual yosh xususiyatlarini inobatga olgan metodik ishlanmalar va o'quv faoliyatini qiziqarli tashkil etish orqali yuqori samaraga erishish mumkin.

Pedagoglar va ota-onalar bu jarayonda faol ishtirok etib, bolalarning intellektual rivojida muhim rol o'ynaydilar. Sinalayotgan o'quvchilarga bir-biri bilan bog'lmagan agan 12 so'z berib quyidagicha uch xil usul bilan yodlab olish talab qilingan:

- materialni bir karra (o'z ichida) o'qib (faqat ko'z bilan) idrok qilish;
- materialni ham o'qish, ham eshitish yo'li bilan (ko'z va quloq bilan) idrok qilish;
- materialni o'zichida o'qish, uni eshitish va yozib olish yo'li bilan (ko'z, quloq va muskul ishtiroki bilan) idrok qilish.

Idrok qilishda imkoni boricha ko'proq sezgi organlarining ishtirok etishi o'quvchilar faoliyatining ongliligi va faolligini oshiradi. Qilib ko'rilgan tajriba va kuzatishlar mmaterialini puxta esga olib qolish uchun idrok qilishda muskul harakat organlarining, ayniqsa, nutq harakat organlarining ishtirok etishi alohida ahamiyatga ega ekanligini isbot qildi. O'quvchilar yozib olayotgan, og'zaki takrorlayotgan material tez va mahkam esda saqlanib qoladi. Kitob matnini yoki og'zaki berilgan materialni mahkam esda olib qolishga idrokning sur'ati (tempi) ta'sir etadi. O'qituvchi tez, shoshib gapirsa, o'quvchilar darslik matnini shoshib, tez o'qisalar, faqat so'zlarni vuzaki o'zlashtiradilar, ammo bu so'zlarda ifoda qilingan fikrni to'la-to'kis va aniq uqib olaolmaydilar. O'qituvchi shunday sur'at bilan gapirmog'i kerakki, uning nutqida ifoda qilingan fikr va qoidalar o'quvchilar uchun ravshan va to'la tushunarli bo'lsin. O'quvchi ham kitob m atnni shunday sur'at bilan o'qishi kerakki, bundagi har bir so'z va iboraning ma'nosi to'la-to'kis idrok qilinadigan bo'lsin. O'quvchi matnni o'qir ekan: «Oldingisini tushunib olm asdan keyingisiga o'tmang» degan qoidaga rioya qilishga odatlanishi kerak. Takrorlash: Bosh miya po'stida yangi puxta bog'lanishlar hosil bo'lmog'i uchun taassurotlar bir necha marta takrorlanishi shart.

Bironta material qancha ko'p takrorlansa, shuncha mahkam esda qolishini hamma biladi. Takrorlash esda qoldirishning puxtaligiga ta'sir qiladigan eng muhim shartlardan biridir. Ammo takrorlash har doim ham samarali bo'lavermaydi. Ba'zan takrorlash hech qanday natija bermasligi mumkin. Takrorlashning bir necha

turlari bo'lib , ularning natijalari ham turlichadir. Avvalo passiv va faol takrorlash usullarini farq qilish lozim. Passiv takrorlash ayni bir materialni idrok qilishning o'zini takrorlayverishdir. Passiv takrorlash ayni bir narsani bir necha karra ko'zdan kechirish, o'qib chiqish yoki eshitish demakdir. Ana shu tariqa takrorlash (ba'zan ko'p marta takrorlansa ham) ko'p vaqtlarda uncha katta natija bermaydi. Faol takrorlash materialni esga tushirish asosida takrorlashdir. Faol takrorlash idrok qilingan materialni, masalan, o'qilgan, eshitilgan materialni bir necha marta esga tushirib takrorlash demakdir. Kitobdan ko'zni uzmasdan takror-takror o'qib yod olishdan ko'ra, faol qaytarish eng yaxshi natija beradigan usuldir. Shu sababli, o'quvchi bir-ikki marta o'qib chiqilgan materialni kitobga nazar solmasdan og'zaki takrorlasa, material tezroq va puxtaroq esda qoladi. Esga olinayotgan materialni boshqa bir kishiga gapirib berish muvaffaqiyatli esda qoldirish uchun katta ahamiyatga ega. Esda tushirishni idrok qilish bilan navbatlab (ya'ni birgal kitobga qarab, birgal yoddan so'zlab) takrorlab borilsa, mahkamroq nerv bog'lanishlari hosil bo'ladi, diqqat to'la-safarbar qilinadi, fikrlash va nutq faoliyati faollashadi, esga olinmogi lozim bo'lgan materialning mazmuni yaxshiroq tushunib olinadi. O'qilgan materialni yoddan so'zlab esda qoldirish o'z-o'zini tekshirib, g'oyat puxta va ravshan nazorat qilishga imkon beradi, bu esa materialning to'la-to'kis, to'g'ri va puxta esda qolishiga yordam beradi. Esda qoldirish jarayonida o'z-o'zini tekshirib ko'rish (o'z-o'zini nazorat qilish) fikrlash va nutq faoliyatini faollashtiradi. Esda olinayotgan materialni boshqa bir kishiga yoddan so'zlab berganda alohida bir mas'uliyat hissi tug'iladiki, bu o'z navbatida, o'quvchilarda esda olib qolishning faollik darajasini oshiradi va esda qolishni samaraliroq qiladi.

O'quv materialini esda olib qolishda har xil yordamchi usullar ham katta ahamiyatga ega: o'qituvchining so'zini yozib borish, kitoblardan ko'chirmalar olish, konspekt va jadvallar (masalan, tarixdan xronologik jadvallar) tuzish, shuningdek, turli rasmlar chizish, sxemalar, chertyojlar qilish, tarix va geografiyadan xaritalar yasash kabi ishlar shu jumladandir. Esda olib qolish jarayonida o'quvchilar shu jadval, sxema va suratlarni o'zlariga qilsalar, materialni o'rganib bilib olish, ayniqsa, osonlashadi. O'quvchilar eng muvaffaqiyatli o'zlashtirishlariga erishmogi

maqsadida so'nggi yillarda programmalashtirilgan o'qituv usuli yangi pedagogik texnologiya, an'anaviy va noan'anaviy usullardan, texnik vositalardan foydalanish usullarini ta'lim -tarbiyaga tatbiq qilinmoqda. Bu usullar bilan o'qitishda ko'pgina hollarda kibernetika vositalari, o'rgatuvchi mashinalar, hisob-elektron sistemalar kompyuter, internet va shu kabilardan foydalanadilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xotira jarayonini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari xotira turi va xususiyatlari kichik maktab yoshida (6-10 yosh) o'quvchilarda asosan operativ (ishchi) xotira va uzoq muddatli xotira shakllanmoqda. Bolalar boshida ma'lumotlarni uzoq muddatga saqlash qobiliyati past bo'lishi mumkin, shuning uchun ko'p takrorlash va mustahkamlash talab qilinadi. Rasmiy ta'lim jarayonida bolalar konkret ma'lumotlarni eslab qolishga moyil, abstrakt tushunchalarni tushunish qiyinroq. E'tibor va diqqat markazlashuvida yosh bolalarda e'tibor doirasi qisqa, shuning uchun xotira jarayonini rivojlantirishda o'qituvchilar qisqa, aniq va qiziqarli topshiriqlarni tanlashlari kerak. Diqqatni jalb qilish uchun o'yinlar, vizual materiallar, interaktiv usullar yaxshi samara beradi. Axborotni tartibga solish va tizimlashtirishda bolalar uchun ma'lumotni qiziqarli va mantiqiy tarzda tartibga solish muhim. Takrorlash va mustahkamlashda takrorlash orqali xotira jarayoni faol faollashadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun o'rganilgan ma'lumotlarni muntazam takrorlash, o'quv jarayonini qiziqarli qilish muhim. O'yin va faoliyatga asoslangan o'rganishda esa, xotirani rivojlantirishda o'yin shaklidagi mashqlar, rolli o'yinlar, hikoyalar, musiqiy va qo'l mehnati faoliyatlari samarali. Bu yoshda bolalar uchun ko'proq amaliy va harakatga asoslangan o'rganish yoqimli va samaralidir. Shaxsiy motivatsiya va ijtimoiy ta'sir bolalarda o'z-o'zini rag'batlantirish qobiliyati shakllanishi davom etmoqda. O'quvchilarni rag'batlantirish, ularning muvaffaqiyatlarini e'tirof etish xotira jarayonining samaradorligini oshiradi. So'z va nutq orqali xotira faoliyatini rivojlantirish nutq orqali o'rganilgan ma'lumotlarni ifodalash, qayta aytib berish bolalar xotirasini rivojlantirishga yordam beradi. Hikoya qilish, muhokama qilish, savol-javob mashqlari foydalidir.

Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xotira

jarayonining rivojlanishi ularning umumiy aqliy rivojlanishi va ta'limdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega. Bu yoshda xotira turlari (vizual, eshitish, amaliy) bir-biri bilan uyg'unlashib rivojlanadi, ammo bolalarning diqqat doirasi cheklanganligi va takrorlashga ehtiyoji tufayli o'rganish jarayonida maxsus yondashuvlar va metodlar qo'llanilishi zarur. Shu tariqa, kichik maktab yoshidagi bolalarda xotirani rivojlantirish nafaqat bilimlarni samarali qabul qilish va eslab qolishga yordam beradi, balki ularning fikrlash ko'nikmalarini va umumiy psixologik salohiyatini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Demak, xotirani rivojlantirish kichik maktab yoshida o'quvchilarning ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va ularni kelajakda yanada chuqur bilim olishga tayyorlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. E.G'G'oziev. Ontogenez psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Noshir.2010 y. 360 b.
2. Jumayev, N.Z. Ontogenez psixologiyasi. O'quv qo'llanma / N.Z. Jumayev .-Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2022.-252 b.
- 3.Кулагина, И. Ю. Возрастная психология: развитие ребенка от рождения до 17 лет. / И. Ю. Кулагина. - М.: УРАО,1999. - 175 с.